“QO‘RQMA” ROMANIDA TARIXIY DISKURS TURLARI HAQIDA

(Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” asari misolida)

Soliyeva Xusnidaxon Hasanboy qizi,
University of Business and Science Filologiya fakulteti
Til va adabiyot ta’limi o‘qituvchisi
E-mail: husnida201@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18811744

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanida tarixiy diskurs turlarining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Asarda tarixiy voqeliklarning siyosiy, yuridik, publisistik, televideniya, badiiy, duo, taom hamda epistolyar (xatlar bilan bog‘liq) diskurslar orqali aks ettirilishi ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida diskurs tushunchasining lingvistik va ijtimoiy xususiyatlari yoritilib, tarixiylikning emotsionallik, informativlik va badiiylik bilan uyg‘unlashuvi misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Roman matnida tarixiy diskurslar muallif g‘oyasini yetkazishda muhim stilistik va semantik vosita sifatida xizmat qilishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *diskurs, tarixiy diskurs, epistolyar diskurs, siyosiy diskurs, yuridik diskurs, badiiy diskurs, “Qo‘rqma” romani.*

Javlon Jovliyevning Qo‘rqma romani bestseller roman hisoblanadi. Asar nashr etilgan bir necha yillardan qayta-qayta nashr etilmoqda. O‘quvchilarning, yozuvchilarning hatto chet el munaqqidlarini e’tiboriga tushgan asar hisoblanadi.“Qo‘rqma” romanining nomi otilgan o‘qdek jaranglaydi – QO‘RQMA! [Qamariddin Artua]

Diskurs – uzviy bog‘langan nutq yoki matn bo‘lib, u lingvistik birliklar, kontekst, ijtimoiy omillar va kommunikativ strategiyalar orqali shakllanadi. Etimologik jihatdan, so‘z lotincha discurrere (“tarqalmoq, harakatlanmoq, fikr almashmoq”) fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, keyinchalik fransuz tilidagi discours orqali ingliz tiliga o‘tgan va XVI-XVII asrlardan boshlab ishlatila boshlangan. Diskurs tilshunoslik, pragmatika va ijtimoiy fanlar doirasida o‘rganilib, muloqotning uzluksizligi, kontekstga bog‘liqligi va ma’no hosil qilish jarayonini aks ettiradi.[Yo‘ldashevaM., 2025:10]

Zamonaviy tilshunoslikda diskursning bir qancha turlarini kuzatdik.Diskurs turlari sifatida publisistik, yuridik, sukut va boshqa turlari mavjud.Rasulov axborot-diskursini, Yo‘ldasheva Dilorom Sukut diskurs, Taom diskursiga oid muammolari, Ertak diskursi, Mamatova Dilshoda tadqiqotlarda bu sohalar bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.Tarixiy diskursning Qo‘rqma asarida siyosiy, badiiy,gazeta, duo, publisistik, taom, yuridik diskurs kabi turlari kuzatish mumkin.

Qaysidir telekanalda yangiliklar berilyapti.Berlindagi talabalar yotoqxonasining birida navbatdagi jinoyat sodir bo‘ldi.Jabrlanuvchi ham jinoyatchi ham O‘zbekiston fuqorolari.Yotoqxona mudiri Laura Shmidtning aytishicha, janjal sevgi mojarosi tufayli yuz bergan. Oqibatda,bir yigit yalang‘och holda derazadan pastga uloqtirilgan, ammo tasodif tufayli tirik qolgan.[Jovliyev J., 2020: 10]

Asarda telekanalda yangilik beriladi. Bunda tarixiy diskursning televideniya turini kuzatishimiz mumkin.

O‘zSSR JK 57-moddasi birinchi bandi bilan, Vatanga xiyonat, davlat sirlarini sotish, 58-modda-qurolli qo’zg’alonga harakat, 64-modda-sovet davlatiga qarshi terakt, 67-modda-aksilinqilobiy tashkilotga a’zolik kabi og’ir jinoyatlarni sodir etgansiz. [Jovliyev J., 2020: 22]

Tarixiy diskursning bu turida informativlik kategoriyalari orqali yuridik diskursni bir ko‘rinishi namoyon etadi.

Nahot bir paytlar yurta bostirib kelgan qudratli Eron shohi Kirni qon to‘la meshkobga tiqqan To‘maris qornida beburd bolalarni to‘qqiz oy ko‘tarib yursa? [Jovliyev J., 2020:]

Bu parchada tarixiylik emotsionallikni oshirish maqsadida foydalanilgan.

Men bu xatlarni zarur bo‘lsa kerak, deb o‘ylab, ular ko‘chib ketgan Xaydelberg shahridagi 49, 48.45-va uyga jo‘natdim.1954 yil, 3 yanvar [Jovliyev J., 2020: 331]

Xatlar bilan bog‘liq tarixiy diskurs tarixiy epitemonim deb yuritiladi.Yuqoridagi parcha bunga misol bo‘ladi. Xabardorsiz, Buxoro, Xiva va Turkiston jumhuriyatlari birlashtirilib yagona O‘zbekiston SSSR davlati tuzildi. [Jovliyev J., 2020: 286]. Siyosiy diskursning tarixiy ko‘rinishi bo‘lib, tarixiy jarayonlar bilan birga siyosiy voqealarga ham ishora qilmoqda.

“Qaro turmush changalidan qutulib, erk chechagi taqa olgan kuchli qiz, eski odam sanamlarni parchalab, erk-Tangriga sajda qilgan ruhli qiz, yo‘ling to‘g‘ri, ortga boqma, ketaver! Ilgarilash ashulasin aytaver!” [Jovliyev J., 2020: 360]

Tarixiy diskursning badiiy diskurs ko‘rinishi juda keng qamrovni tashkil etadi. Bu parchada esa saj usulidan foydalanilgan va badiiy diskursning namunasi sifatida keltirilgan.Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanida tarixiy diskurslar ko‘p qatlamli va rang-barang shaklda namoyon bo‘lib, asar badiiy tuzilishining muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, roman matnida siyosiy, yuridik, publisistik, televideniya, epistolyar, badiiy hamda boshqa diskurs turlari tarixiy voqelikni yoritishda o‘zaro uzviy bog‘langan holda qo‘llanadi. Ushbu

diskurslar orqali muallif tarixiy davr ruhini, ijtimoiy muhitni va inson taqdiridagi murakkab jarayonlarni real va ta’sirchan tarzda ifodalaydi.

Asarda tarixiy diskurs informativlik bilan bir qatorda emotsional-ekspressiv yuklama kasb etib, o‘quvchida tarixiy xotirani faollashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yuridik va siyosiy diskurslar davrning mafkuraviy bosimini ochib berar ekan, badiiy diskurs esa tarixiy haqiqatni obrazlilik va estetik vositalar orqali chuqurlashtiradi. Epistolyar diskurs esa tarixiy voqealarning shaxsiy kechinmalar bilan uyg‘unlashuvini ta’minlab, tarixiylikka insoniylik va samimiylik bag‘ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, “Qo‘rqma” romanida tarixiy diskurslar nafaqat voqealar bayonining vositasi, balki muallifning g‘oyaviy-ma’naviy pozitsiyasini ifodalovchi muhim lingvopoetik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot natijalari badiiy matnlarni diskursiv tahlil qilishda tarixiy diskursning ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi hamda o‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida diskurs tadqiqotlari uchun nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қурбонова М. Гендеролингвистик тадқиқ янги парадигма сифатида // ЎТА, 2014. №2.
2. Сафаров Ш., Боймирзаева С. Гендер тилшунослиги ва матн тадқиқи //Хорижий филология, 2006. №4.
3. Akbarova Z. O‘zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi . Toshkent 2007
4. https://zenodo.org/records/15516783
5. Javlon J.Qo‘rqma.Toshkent 2020.